

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, G.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi xorij olimlarining tadqiqotlarda.....	17
B.Q.Qurbanova	
Ta'llimning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishga doir qarashlar	22
S.M.Zokirova, M.R.Maxkamov	
O'zbekistondagi ta'llimi tojik tilida olib boradigan maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga davlat tilini o'qitish jarayonida monolog va dialogning o'rni	27
G.I.Yuldasheva, O.M.Mirzaxamdamova	
Sotsiologik tadqiqotlarda dasturiy ta'minot va Ibm Spss dasturidan foydalanish omillari.....	33
Sh.A.Ro'zaliyev	
Informatika turkum fanlarini o'qitishda geymifikatsiyadan foydalanish bosqichlarini axborotlarni qayta ishslash va uzatish asosida tashkil etishning metodik jihatlari	40
A.R.Abdullayeva	
Nikoh yoshi - oila barqarorligini ta'minlashning ijtimoiy psixologik omili	43
N.U.Alijonov	
Ta'llim sohasidagi rahbarlarning psixologik salomatligini tadqiq etish.....	49
M.Y.Atadjanov	
Mahalla – milliy identiklilikka tahdidlardan himoya omili	54
N.N.Ahmadjonov	
Ijtimoiy psixologiyada shaxsiy qadriyatlarini aniqlash tizimi.....	60
M.A.Djalalova	
Maktabgacha yosh davri bolalarining psixologik salomatligining empirik tahlili	65
N.A.Ergasheva	
Psixologik salomatlik hamda uning mezonlari.....	69
Sh.K.Mamajonova	
O'smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini empirik o'rganish	73
D.M.Mo'minov	
Ommaviy axborot vositalaridagi manipulyativ omillarni inson ongiga tasirini o'rganish	81
D.M.Nuralieva	
O'zbek oilalarida oila qurish motivlarini o'rganishda empirik tadqiq etilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	87
R.S.Nuriddinov	
Bo'lajak pedagoglar psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillar.....	92
M.J.Rajabov	
Oilaviy munosabatlarda transakt rollar va ularning tahlili	96
F.S.Soliyev	
Zamonaviy ta'llim muhitida psixologik xavfsizlik va ijtimoiy-madaniy xavfsizligi indeksini oshirishning psixologik mexanizmlari.....	100
Sh.A.Usmonov	
Oilada bolaning o'zini anglashida ota-onas shaxsining roli	106
M.B.Yuldasheva	
Yolg'izlik hissining ifodalananish xususiyatlari	111
G.S.Yunusova	
O'quvchilarni kasb–hunarga yo'nalganligini psixologik tahlili	116
M.S.Zakirova	
Bolada shaxs fazilatlarini shakllanishida "Men" konsepsiyasining o'rni	121
H.A.G'anieva	
Maktab o'quvchilarining kasb tanlashga bo'lgan motivlarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....	128
Л.Ю.Абдукадирова, Д.В.Миронов	
Интернет-зависимость школьников, как фактор снижения показателей в исследованиях PISA	134



УО'К: 159.922

OILAVIY MUNOSABATLARDA TRANSAKT ROLLAR VA ULARNING TAHLILI**ТРАНЗАКТОВЫЕ РОЛЬ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ИХ АНАЛИЗ****TRANSACT ROLES IN FAMILY RELATIONS AND THEIR ANALYSIS****Rajabov Murodil Jumaboyevich** 

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Annotatsiya

Har bir oilaning boshqa oilalarga o'xshamasligi va o'ziga hos individual xususiyatiga ega ekanligi. Bunda oila a'zolarining ma'lumoti, ma'naviy talablari, iqtisodiy shart-sharoitlari turlicha bo'lishi mumkinligi, buni sotsiologlar, psixologlar orasida qizg'in munozaralarga sabab bo'layotganligi, erkak va ayol o'tasida oilaviy munosabatlar, farzand va ota-onalar o'tasidagi tushunmovchiliklar ba'zi oila a'zolarining ayrilib yashashlariga sabab bo'layotganligi, ba'zi oilalarda xokimyatga intilish, boshqarish istagi paydo bo'lishi, bunda o'zaro munosabat va mulogotdagi hamkorha munosabat transaktsion harakatlar, psixologik manipulyatsiyaning asosiy ko'rinishlari ekanligi, ushbu psixologik hodisani o'rganish maqsadida E.Bern tomonidan 1955 yil AQSHda yaratilgan transakt kontseptsiyasi, ya'ni shaxslararo munosabatlarda odamlarni xarakter xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni ota-onala (shartli ravishda O-o), katta odam (shartli ravishda K), yosh bola (shartli ravishda B) kabi rollarni o'ynashini aniqlandi. Bunda respondentlarning ko'p qismi "Katta" transaktsion rolini, o'rtalarasi "Ota-onala" rolini, quyi darajasi "Bola" rolini bajarishlari maniqlandi. to'g'ri keldi. "KATTA" rolini ayollaraga nisbatan erkak respondentlar ko'p qo'llashlari, "Ota - ona" rolini erkak jinsiga mansub respondentlar ayol jinsiga mansub respondentlardan ko'p qo'llashlari aniqlandi. E'tiborga molik tomoni tadqiqotimizda erkak respondentlarda oilada manipulyatsiya qilishga, dominant bo'lishga intilish yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Аннотация

Дело в том, что каждая семья отличается от других семей и имеет свои индивидуальные особенности. При этом образование, моральные требования и экономическое положение членов семьи могут быть разными, что является причиной горячих дискуссий среди социологов и психологов, семейных отношений между мужчинами и женщинами, детьми и отцами - фактом непонимания между материальными. вызывают раздельное проживание некоторых членов семьи, в некоторых семьях возникает стремление к власти и контролю, в которых взаимодействие и отношение к партнеру по общению являются транзакционными действиями, основной частью психологической манипуляции с целью изучения этого психологического явления, трансакта (лат. транзакционно-договорная концепция, т. е. в межличностных отношениях люди называются родителями (условно Р), старше. Установлено, что человек (условно В) играет такие роли, как маленький ребенок (условно Д), в которых большинство респондентов. играть роль «Большого», средний уровень — роль «Родителя», а нижний уровень — роль «Ребенка», было подтверждено, что они это сделают. Это было правильно. Установлено, что респонденты-мужчины чаще используют роль «СТАРШЕ», чем женщины, а роль «Отец-мать» чаще используют респонденты-мужчины, чем респонденты-женщины. Примечательно, что в нашем исследовании мы можем наблюдать, что респонденты-мужчины склонны к манипулированию и доминированию в семье.

Abstract

The fact is that each family is different from other families and has its own individual characteristics. At the same time, the education, moral requirements and economic status of family members may be different, which is the reason for heated discussions among sociologists and psychologists, family relationships between men and women, children and fathers - a fact of misunderstanding between mothers. cause separation of some family members, in some families there is a desire for power and control, in which interaction and attitude towards a communication partner are transactional actions, the main part of psychological manipulation in order to study this psychological phenomenon, transaction (lat. transactional-contractual concept, that is, in interpersonal relationships people are called parents (conditionally P), older. It has been established that a person (conditionally B) plays roles such as a small child (conditionally P), in which the majority of respondents play the role of "Big", average level. - the role of "Parent", and the lower level - the role of "Child", it was confirmed that they would do this. It was found that male respondents use the role "OLDER" more often than women, and the role "Father-Mother". are used more often by male respondents than by female respondents. It is noteworthy that in our study we can observe that male respondents tend to manipulate and dominate in the family.

Kalit so'zlar: milliy qiyofas, xarakter, oilalarning individual xususiyati, farzand, ota-onalar, manipulyatorlar, erhotin munosabatlari, er - xukmron, xotin - yumshoq va ezilgan, transaktsion harakatlar, psixologik manipulyatsiya, ota-onala (shartli ravishda O-o), katta odam (shartli ravishda K), yosh bola (shartli ravishda B), transaktsion harakatlar

PEDAGOGIKA

Ключевые слова: национальный имидж, характер, индивидуальные особенности семьи, ребенок, родители, манипуляторы, отношения муж-жена, муж-доминант, жена-мягкая и угнетенная, транзакционные действия, психологическая манипуляция, родители (условно Р), взрослый человек (условно В), маленький ребенок (условно Д), транзакционные действия.

Key words: national image, character, individual characteristics of the family, child, parents, manipulators, husband-wife relationships, dominant husband, soft and oppressed wife, transactional actions, psychological manipulation, parents (conditionally P), adult (conditionally C), small child (conditionally D), transactional actions.

KIRISH

Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanaladi. Agar oilada sog'lom fikr va mustahkam rishtalar bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishish mumkin. Binobarin, jamiyat – yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi – har qanday millat farovonligining asosidir.

Jamiyatdagi o'zgarishlar shaxsnинг milliy qiyoфasi, xarakteri, o'zligini anglashning yangi qirralarini shakllantirishga, oilaning milliy uslubini taglashga, ijobjiy xususiyatlarini rivojlantirishga, illatlarga barham berishga va o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlarining yangi ko'rinishlarini yaratishga zamin hozirlashi ehtimol. Oilada uning a'zolari intizomi va madaniyatiga asos solinadi. Jamiyat qabul qilgan hamda inson hayotini yuqoriroq darajaga ko'tara oladigan hatti-harakatlar me'yorigina qulay oilaviy sharoitlarda insонning tabiatiga singib ketadi.

Har bir oila boshqa oilalarga o'xshamaydigan o'z individual xususiyatiga egadir. Oila a'zolarining ma'lumoti, ma'naviy talablari, iqtisodiy shart-sharoitlari turlicha bo'lishi sababli oiladagi kelib chiqadigan muammolar ham turlichadir. Bugungi kunda sotsiologlar, psixologlar orasida qizg'in munozaralarga sabab bo'layotgan oiladagi salbiy munosabatlar, oilada ba'zi a'zolarning ayrilib yashashlari, janjal va nizolar, kelishmovchilik xolatlarining ko'plab uchrashi jamoatchilikni tashvishga solmoqda. Erkak va ayol o'rtasida oilaviy munosabatlar, farzand va ota-onalar o'rtasidagi tushunmovchiliklar ba'zi oila a'zolarining ayrilib yashashlariga sabab bo'limoqdi. Hozirgi zamon oilasida erving ayolidan, ayolning eridan kutadiganlari shu qadar ko'pki, ularning ado etishning o'zi mushkulligi hammamizga ayon. Oilaning taqdirini belgilovchi, mustahkamligini ta'minlovchi, barqarorligini saqlovchi moddiy va maishiy omillar bilan bir qatorda o'zaro munosabatlarning ahamiyati ham ortib bormoqda. Hayotimizda, har yerda manipulyatorlar bo'lgani kabi oilada ham manipulyatorlar mavjud bo'lib, oilaning ba'zi a'zolari bilib, ba'zilari bilmagan holda manipulyativ usullar foydalansmoqda. Bunga oiladagi er-hotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni misol qilib olishimiz mumkin. SHu bilan birga ba'zi oilalarda xokimyatlga intilish, boshqarish istagi paydo bo'ladiki bunda ular turli usullarni o'ylab topadilar yoki ma'lum usullarni qo'llaydilar. Masalan; er – xukmron va yo'naltiruvchi, xotin – yumshoq va ezilgan. O'zaro munosabat va muloqtdagi hamkorha munosabat transaksion harakatlar, psixologik manipulyatsiyaning asosiy ko'rinishlaridandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

E.Bern tomonidan 1955 yil AQSHda yaratilgan transaksiya (lot. transaction-kelishuv [5.502]) kontseptsiyasi, shaxslararo munosabatlarda odamlarni xarakter xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni ota-onsa (shartli ravishda O-o), katta odam (shartli ravishda K), yosh bola (shartli ravishda B)larga bo'lib chiqqan [1.69]. Bu oilaviy munosabatlarda o'z ko'rinishiga egadir.

Biz oilada manipulyatsiyani o'rganish uchun transaksiyon harakatlar tahlilini o'tkazish maqsadida FDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi tinglovchilarida E.Bernning "Transakt tahlil" metodini o'tkazdik. Respondentlardan olingan natijalarda shaxslararo munosabatlarda bola, katta va ota-onsa kabi transaksiyon rollarni qay darajada mavjud ekanligi namoyon bo'ldi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Shunday qilib oilaviy munosabatlarning manipulyativ tomonini o'rganishda respondentlar eng yuqori darajasi "Katta" transaksiyon roliga, o'rta darajasi "Ota-onsa" roliga, quiy darajasi "Bola" roliga to'g'ri keldi.

Natijalarga ko'ra respondentlar oilada "KATTA" transaksiyon rolini o'ynar ekanlar. Agar sinavchilardan olingan natijalarni jinslar jihatidan farqlanadigan bo'lsa oilaviy munosabatlarda "KATTA" rolini ayollaraga nisbatan erkak respondentlar ko'p qo'llar ekanlar. Lekin, erkak va ayol respondentlarning natijalari bir-biriga yaqin bo'lib, ko'p hollarda ular uzatilayotgan ahborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonida mantiqiy tahlil qilish, ratsional asoslash, analiz-sintez qilish orqali

qaror qabul qilishlari mumkinligi ko'rinish turibdi. Bu respondentlar voqealari real holatni tekshirish vaqtida shoshilmasliklari avvalo axborotni yig'ishi hamda yig'ilgan axborotni jamlashi va xulosa qabul qilgan xolda o'z qarashlarini tarqatishlari, agar mavhumlik tug'ilsa bu mavhumlikni boholashda emotsiyaga berilmasliklari bunday holatda juda chuqur o'ylab ko'rishlari mumkin. Bunday respondentlar, mehribon ota-onasi holatidan farq qilib, me'yoriy va bir tomonlama vaziyatlardagi adaptatsiyaga emas, balki o'ylab ko'rish talab qilinadigan va tanlash erkinligini beradigan, shu bilan birga qabul qilingan qarorni keyingi holatini kerakli darajada anglagan holda o'z zimmasiga olishga asoslanadi.

Oilaviy munosabatlarda "KATTA" odam transaksion roliga «Bir qadam ortda» manipulyativ usulini (Sharqda «Aylor kishi erkakdan bir qadam ortda yuradi» deb atalgan maqolga asoslanib shartli ravishda shunday atadik) misol qilib olishimiz mumkin. Bu usulni odatda, barcha erkaklar qo'llaydilar. Chunki udumlarimiz, ana'nalarimiz va mintalitetimizdan kelib chiqqan holda, oilaning qo'rg'oni, himoyachisi va boshlig'i sifatida erkaklarning har bir qarori yoki so'zi qonun deb qabul qilinadi. Ba'zi erkaklar bundan o'zining manfaatlari yo'lida juda yahshi foydalananadilar. Bu usulda xotin (albatta, tarbiyadan kelib chiqqan holda) xoh charchagan, xoh kasal bo'lsin, erining buyruqlarini so'zsiz amalga oshiradi va buni to'g'ri deb qabul qiladi. Xotin bir paytning o'zida bolaga qarashi, ham ovqat qilishi, ham kir yuvishi, orada dasturxon atrofida kutib o'tirgan oila a'zolariga dasturxon bezashi, turli yumushlarini bajarishi shart. Agar bir paytning o'zida barcha ishni amalga oshirishga ulgurmasa, oila a'zolarining g'azabiga uchrashi tabiiy. Lekin erkakni oilaning boshlig'i sifatida qabul qilib, undan yordam so'rashga botina olmaydi. Chunki «Oiladagi mayda-chuyda ishlarga erkakni aralashtirma?» degan qarash tomonlarning ongiga singib ketgan.

Oilaviy munosabatlardagi transaksion holatlarning kegingi natijasi "Ota - ona" roli bo'lib, jinslar jihatidan bo'linsa unda erkak jinsiga mansub respondentlar ayol jinsiga mansub respondentlardan ko'p ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari ular "OTA – ONA" rolini o'ynash davomida, "Men - mehribon ota-onasi" ya'ni, muloqot jarayonida sherikni erkelaydi, unga turli imkoniyatlar beradi, mehribonlik ko'rsatadi, barcha berilgan savollarga to'liq javob berishga, turli vaziyatlarda yordam qo'lini cho'zishga intiladi. Ba'zi noo'rin qilinadigan xarakatlarni oldini olishga, sheriklarini to'g'ri yo'lga solishga xarakat qiladi. Ushbu respondentlar xuddi juda yaqin insonlar kabi har qanday topshiriqni (topshiriqlar unga tegishli bo'lmadasa) birga o'z zimmalariga oladilar. Va ular ko'proq «Men buni bajaraman», «Qo'rhma», «Men barcha narsada senga yordam beraman» kabi so'zlarni ko'p takrorlaydilar. Bundan tashqari mehribon ota-onasi xarakat imkoniyatlarini ketma-ketligini ko'rib chiqish, tahlil qilish, qisqa vaqt ichida qaror qabul qilish, vaqtida yuqori darajada muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini beradi.

Oilaviy munosabatlardagi "Ota - ona" transaksion holatiga misol qilib "Nima uchun ular siz emas?", "Agar siz rostdan meni yaxshi ko'rganingizda", "Siz o'z avtomashinangizni mendan ortiq ko'rasiz" va shu kabilarni olishimiz mumkin. Misol uchun xotin: Kecha sizning sobiq do'stingizni uchratdim, esingizda bo'lsa o'zini zo'rg'a eplab yurardi, xozir uning shofyori va mashinasiga qaraganda katta odam bo'lib ketibdi. So'ng o'zimni o'yladim, axir sizdan umidim katta edi. Xotin bu so'zlar orqali erini yuqoriroq mavqe, katta maosh olish va hokozolar uchun faol harakatlarga undash orqali manipulyatsiya qilmoqda. Ushbu manipulyativ usilda ta'sir nishoni sifatida – ernen o'z-o'zini harakatga undash extiyoji va toptalgan g'ururga ta'sir etish orqali harakatga undash mavjuddir. Bu, so'zsiz, yashirin boshqaruv, ammo u manipulyatsiyami? Bu qator shart-sharoitlarga bog'liq. Agar yuqoriroq-ko'proq narsaga erishishga ernen ham ehtiyoji bo'lsa, ya'ni uning ham istagi bo'lsa, unda bunday ta'sir ernen maqsadga erishishdagagi yetishmayotgan sobitqadamlikni kompensatsiya qiladi. Agar mavjud voqelik erni qoniqtirayotgan bo'lsa-yu, xotini undan ko'proq narsani xohlayotgan bo'lsa-bu endi manipulyatsiyadir. Bunday manipulyatsiyani to'htatish uchun er, ishxonadagi real holati, maoshi va o'z rejalarini haqida xotinga ochiq aytish kifoya.

E'tibor qaratgan bo'lsangiz tadqiqotimizda jinslar jihatidan farqlar tahliliga ko'ra erkak respondentlarda oilada manipulyatsiya qilishga, dominant bo'lishga intilish yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bunday o'zini tutish oilada rollarning taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lib, o'zbek oilalariga xoslik oilada erkak mavqeining ustunligi, an'anaviy oilalarda farzandlar uchun ota-onasi, ayniqsa, ota obro'sining yuqoriligi, oiladagi munosabatlarning vertikal xarakterga ega ekanligi, ya'ni ayolning erga, farzandlarning ota-onaga, ukaning akaga, singilning opaga bo'y sunish bilan bog'liqdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy faoliyatni kuzatish jarayonida (psixotrapevtik guruuhlar sharitida) odamlar vaqt-i-vaqt bilan o'z xulqlarida ko'zga tashlanadigan o'zgarishlarni namoyon etishadi. Umumiy xolatlarda, nutqlarida, intonatsiya va hissiyotlarda xulqning bu ko'rinishlari ko'pincha xissiy qo'zg'alishlar bilan ham kuzatiladi. Paydo bo'layotgan xulq bilan pattern ma'lum bir psixik xolatda muvofiqlashadi. Shu paytning o'zida yana bir pattern birinchisidan farqli o'laroq boshqa ruhiy xolatga to'g'ri kelishi tabiiydir. Shunday ekan Ambrouz Brisning istehzo bilan oilaviy munosabatlarni "xo'jayin, beka va ikki quldan tashkil topgan uyushma" deb atagani bejiz emas [6.66].

Shunday ekan biz quyida beradigan tavsiyalar oilaviy munosabatlarda manipulyativ usullarni tushunib yetish, qaytarish yoki bartaraf etish imkoniyatini beradi;

- transaktsion tahlil nuqtai-nazaridan qaralganda oilaviy munosabatlarni optimallashtirish (lot.optativus – yahshilash [5.348]) uchun barcha "Men" holatlari shaxsda garmonik bo'lishi kerakdir;

- ba'zan hamsuhbatning hovurini pasaytirishning yaxshi yo'li – ovoz ohangini pasaytirish. Bu tinglashga majbur qiladi[3.41].

- oilaviy munosabatlardagi kelishmovchiliklarni kuzating, uning mexanizmi va undan chiqish yo'llarini tushunishga intiling hamda qiyinchilik va muvaffaqiyatsizliklardan cho'chimang;

- oilaviy munosabatlarda manipulyatsiyani mavjudligini sezib qolsangiz birinchi navbatda himoyaga e'tibor bering. Ba'zida shuning o'zi muvaffaqiyatli munosabatlar uchun kifoya bo'ladi;

- oilada biror ishni bajarish davomida turmush o'rtog'ingizdan yordam qilishni iltimos qiling. Uy ishlarini ko'pincha malaka yo`qligi uchun yomon bajarishadi. Ko'proq birga bajarilgan ishlar bir-biriga bo'lgan munosabatni ijobjiy tomonga oshiradi;

- turmush o'rtog'ingizni muvoffaqiyati uchun maqtang! Shuning uchun uni yoqtirishingizni tez-tez aytib turing;

- turmush o'rtog'ingiz oilada biror yumushni chala bajarsa ham maqtang, erkalating chunki keyingi bajariladigan yumushlarni to'lig'icha bajarilishiga zamin bo'ladi.

- maqtov har qanday holatda ham xarakatga undaydi, ya'ni maqtov yashirin boshqaruvi sifatida ta'sir ko'rsatadi;

- agar turmush o'rtog'ingiz ishni oxirigacha yetkazishni istamasa ("charchadim", "vaqtim yo'q" kabi bahonalarni ro'kach qila boshlasa) - majbur qilmang. Ortga suring iloji bo'lsa-keyinga goldiring. Esda tuting nafaqat erkaklar, balki ba'zi ayollar ham uy yumishlarini yaxshi idrok qilishmaydi.

- sizga biror taklif bilan murojaat qilgan turmush o'rtog'ingiz albatta ijobjiy javob kutadi. Butun tana, psixika ana shunga yo'naltirilgan bo'ladi. Rad javobini olganda qanday holatga tushadi? Uning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'ring. Sizga biror narsada rad javobi berishsa o'zingizni qanday his etasiz? O'ylab ko'ring;

- oilada qandaydir taklif bildirishga to'g'ri kelsa, faqat bir marta taklif qilish kerak. «Ko'ndirish – zo'rslash demak» – degan qoidani unutmaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Берн Э. «Игры, в которые играют люди». Перевод А.А.Грузберга. 1964; Екатеринбург: ЛИТУР, 1999. К.: PSYLIB, 2004.
2. Бодалев А.А. Психология общения. М.: Изд-во «Институт практической психологии», Воронеж: НПО «Модек», 1996. 120 ст.
3. Власова Н.М. Защита от манипуляторов всех мастей. г. Москва, 1998 г. 32 с.
4. Литвак М.Е. Психологическое айкидо. Ростов н/Д., 1992.-64 с.
5. Словарь иностранных слов. -13-е изд., стереотип. М., изд, «»Русский язык, 1979, с изменением.
6. Шостром Э. "Анти - Карнеги", г. Минск, 1999 г. 76 с.